

BOBURIYLAR DAVRI FALSAFASIDA INSONPARVARLIK QARASHLARINING SHAKLLANISHI

Nishonov Muhammad Bahodir o'g'li

muhammadnishonov1998@gmail.com

Pulatov Sherdor Nematjonovich

*Ilmiy rahbar: Alfraganus universiteti, Ijtimoiy fanlar kafedra mudiri, falsafa fanlari bo'yicha falsafa
doktori (PhD)*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada shoh va shoir Zahiriddin Muhammad Boburning hayoti, faoliyatiga, merosi va ijtimoiy-siyosiy qarashlarining ayrim jihatlarini yoritishga bag'ishlangan.*

Annotatsiya: *В статье рассматриваются некоторые аспекты жизни, деятельности, наследия и общественно-политических взглядов короля и поэта Захириддина Мухаммада Бабура.*

Annotatsiya: *This article is devoted to highlighting some aspects of the life, work, legacy, and socio-political views of the king and poet Zahiriddin Muhammad Babur.*

Kalit so'zlar: *Boburiylar davrida ijtimoiy adolat tushunchasi, diniy bag'rikenglik.*

Ma'lumki, din ijtimoiy ong shakllaridan biri sifatida har qanday xalq, davlat va jamiyat hayotida ham katta o'rin va ahamiyatga egaligi bilan alohida ajralib turadi. Fikrimizning dalili sifatida bunga insoniyat tarixidan Sharqda ham, G'arbda ham juda ko'plab misollar keltirishimiz mumkin.

Shu ma'noda Hindistonda Mirzo Bobur barpo etgan, asos solgan katta davlat-saltanatida ham ijtimoiy hayotning barcha yo'nalishlari kabi dinlararo munosabatlar masalasi eng muhim, ta'bir joiz bo'lsa, zudlik bilan xalq etilishi lozim bo'lgan asosiy muammolardan biri edi.

Zero, bizning fikrimizcha Bobur davlati-saltanatining gullab-yashnashi, rivojlanishi, ravnaqtopishi hamda asrlar osha ajdodlardan avlodlarga vorisiy o'tib, davomlilikining ta'minlanishi qaysidir ma'noda aynan mana shu masalaning qay darajada xalq etilishiga bog'liq edi.

Chunki, ushbu masalaning ijobiy xalq etilishi o'z tarkibida turli diniy e'tiqodlarga ega bo'lgan ko'plab millat va elat vakillarini birlashtirgan Bobur Mirzo davlati-saltanatida ijtimoiy adolat qaror topishining o'ziga xos omillaridan biri edi. Zero, ijtimoiy adolat qaror topgan joyda mamlakat gullab-yashnaydi, xalqning tinch-totuvligi va farovonligi ta'minlanadi.

Mirzo Boburning dinlararo munosabatlarga oid qarashlari xaqida biz "Boburnoma"dan va uning boshqa asarlaridan ko'plab kerakli ma'lumotlarni olishimiz mumkin. Ular orasida ulug' sarkardaning o'z o'g'li Xumoyunga "Vasiyat" lari bizning fikrimizcha nafaqat boburiylar davlati-saltanati uchun, balki o'sha davr va undan keyingi davrlarda ham, globallashuv jarayonlari kechayotgan hozirgi XX-XXI asrlar butun dunyo siyosat ilmi uchun ham alohida va ta'bir joiz bo'lsa, favqulodda muhim ahamiyat kasb etadi.

Chunki bu davlat boshqaruvining eng muhim jihatlaridan biri-dinlararo bag'rikenglik (diniy tolerantlik) masalasini o'sha vaqtda ijobiy xalq etishning baburiylar davlati-saltanatida umrguzaronlik qilayotgan barcha xalqlar uchun nihoyatda maqbul, go'zal namunasi edi.

O'zining "Boburnoma", "Mubayyin", "Aruz risolasi", turli maktub, farmon, nishon, fathnomalarida millatlararo va dinlararo munosabatlarga oid Bobur keltirib, taxlil etgan ma'lumotlar, uning o'z kuzatish, tajribalari va xulosalari shu qadar ko'p, demografik, etnonimik, etnografik, toponimik, din, tasavvuf g'oya tariqatlariga oid uning o'z shohidliklariga o'sha o'zi davlat qurgan butun Turkiston, Afg'oniston, Xuroson va Hindiston mintaqalari bo'yicha shohidliklari behad boy, rang barangki, ularning hammasini bevosita keltirib, taxlil etishning imkoniyati yo'q.

Bo'lganda ham, mazkur jihat, sohalarning har biri bo'yicha maxsus monografik tadqiqotlar yozish mumkin. Shuning uchun ham biz Bobur davlatining katta ijtimoiy siyosatining bosh, asosiy yo'nalish, jabhasini tashkil etuvchi uning millatlararo va dinlararo yuritgan siyosati, erishgan konkret natijalari borasidagi eng muhim, asosiy ma'lumotlar, shohidliklari, kuzatish va xulosalarini quyidagicha guruhlab, muxtasar tasniflab berish ana shu birlamchi materiallar borasidagi o'z fikr-mulohazalarimiz, kuzatish va xulosalarimizni keltirish mumkin. O'zbekiston o'zining Davlat mustaqilligini qo'lga kiritganidan so'ng, o'zbek xalqi, uning ma'naviy madaniyati har tomonlama gullab-yashnash imkoniyatiga ega bo'ldi. Milliy uyg'onish, asl milliy an'analar va ma'naviy qadriyatlarni tiklashga qaratilgan davlat siyosatining olib borilishi, o'zbek xalqining ma'naviy qullik tuzoqlaridan ozod bo'lishiga, uning ma'naviy ijodkorlik g'ayratining barq urib gullab yashnashiga, dunyo hamjamiyati ma'naviy madaniyati taraqqiyotida o'ziga xos va munosib o'rin egallashiga olib kelmoqda.

Bu jarayonda ajdodlarimizdan qolgan boy ma'naviy merosni o'rganish, tadqiq qilish, xalqimiz orasida keng targ'ib va tashviq qilish katta ahamiyat kasb etadi. Milliy ma'naviyatimiz taraqqiyotiga o'tmish mutafakkirlarimiz o'zlarining salmoqli xissalarini qo'shganlar.

Mana shunday ulug' siymolarimizdan biri Mirzo Boburdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2017.
2. "Yusupov, M. Sharq falsafasida adolat konsepsiyasi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2015.
3. Ochildiev, A. Islom falsafasida axloq va adolat masalalari. – Toshkent: Imom Buxoriy xalqaro markazi, 2019.
4. G'urov, B. "Mirzo Boburning ijtimoiy-siyosiy qarashlari" -Toshkent: MUMTOZ SO'Z, 2021.